

---

## Synonymic, homonymic, and polysemous interference in the translation of terminological units of hydrotechnical construction from English into Uzbek and Russian

**Babakulova Luiza Ravshanovna**

[babakulovaluiza214@gmail.com](mailto:babakulovaluiza214@gmail.com)

Teacher, Department of English,  
"Tashkent Institute of Irrigation and  
Agricultural Mechanization Engineers"  
National Research University

- Annotation** *This article presents a comparative linguistic analysis of synonymic, homonymic, and polysemantic interference in translating English hydrotechnical terminology into Uzbek and Russian. The study applies the methodological scheme term – seme – context – translation variant – semantic shift – pragmatic outcome, drawing on a corpus based on GOST and ISO standards and terminological sources (Lotte, 1961; Wüster, 1979). The analysis revealed neutralization of functional distinctions within the synonymic series dam, levee, and weir, contextual ambiguity in the homonymic units head and bank, and semantic narrowing in the polysemantic terms channel and intake (Komissarov, 1990; Leychik, 2007). Translation strategies were systematized, including transliteration, calquing, direct equivalence, functional equivalence, and descriptive translation (Vinay & Darbelnet, 1995; Nida, 1964). Analysis of a 535-term corpus showed that 60 percent retain full equivalence, 30 percent partial equivalence, and 10 percent undergo semantic loss (Grinev-Grinevich, 2008). These findings have practical value for translation practice in hydraulic engineering and for compiling multilingual terminological dictionaries.*
- Keywords** *Hydrotechnical terminology, synonymic interference, homonymy, polysemy, translation strategies, semantic shift, functional equivalence*

---

## Gidrotexnik inshootlarga oid terminologik birliklarni ingliz tilidan o'zbek va rus tillariga tarjima qilishda sinonimik, omonimik va polisemantik interferensiya

**Babakulova Luiza Ravshanovna**

[babakulovaluiza214@gmail.com](mailto:babakulovaluiza214@gmail.com)

"Ingliz tili" kafedrası o'qituvchisi,  
Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo'jaligini  
Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti  
Milliy Tadqiqot Universiteti

- Annotatsiya** *Ushbu maqolada ingliz tilidagi gidrotexnik inshootlarga oid terminlarning o'zbek va rus tillariga tarjimada berilishida yuzaga keladigan sinonimik, omonimik va polisemantik interferensiya hodisalari qiyosiy-lingvistik tahlil qilinadi. Tadqiqot termin – sema – kontekst – tarjima varianti – semantik siljish – pragmatik oqibat metodologik sxemasi asosida olib borilib, GOST va ISO standartlari, terminologik lug'atlar hamda ilmiy manbalar asosida shakllantirilgan korpusdan foydalanildi (Lotte, 1961; Wüster, 1979). Tahlil natijasida dam, levee, weir kabi sinonimik qatorlarda funksional farqlarning tarjimada neytrallashuvi, head va bank kabi omonimik birliklarda kontekstual noaniqlik, channel va intake kabi polisemantik terminlarda semantik torayish holatlari aniqlandi (Komissarov, 1990; Leychik, 2007).*

*Shuningdek, tarjima strategiyalari – transliteratsiya, kalkalash, to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent, funksional ekvivalent va izohli tarjima – tizimlashtirildi (Vinay & Darbelnet, 1995; Nida, 1964). Tadqiqotda 535 ta termindan iborat korpus tahlil qilinib, terminlarning 60 foizi to'liq, 30 foizi qisman ekvivalentlikni saqlashi, 10 foizida esa semantik yo'qotish kuzatilishi statistik jihatdan asoslandi.*

**Kalit so'zlar** *Gidrotexnik terminologiya, sinonimik interferensiya, omonimiya, polisemiya, tarjima strategiyalari, semantik siljish, funksional ekvivalentlik*

---

**Синонимическая,  
омонимическая и  
полисемантическая  
интерференция при переводе  
терминологических единиц  
гидротехнических сооружений  
с английского языка на  
узбекский и русский языки**

**Бабакулова Луиза Равшановна**

[babakulovaluiza214@gmail.com](mailto:babakulovaluiza214@gmail.com)

Преподаватель кафедры английского языка,  
«Ташкентский институт инженеров  
ирригации и механизации сельского  
хозяйства»

Национальный исследовательский  
университет

---

**Аннотация** *В данной статье проводится сопоставительно-лингвистический анализ явлений синонимической, омонимической и полисемантической интерференции, возникающих при переводе английской терминологии гидротехнических сооружений на узбекский и русский языки. Исследование опирается на методологическую схему термин – сема – контекст – вариант перевода – семантический сдвиг – прагматическое следствие, а корпус сформирован на основе стандартов ГОСТ и ISO, терминологических словарей и научных источников (Lotte, 1961; Wüster, 1979). В результате анализа выявлены случаи нейтрализации функциональных различий в синонимических рядах dam, levee, weir, контекстуальная неоднозначность омонимичных единиц head и bank, а также семантическое сужение полисемантических терминов channel и intake (Komissarov, 1990; Leychik, 2007). Систематизированы переводческие стратегии – транслитерация, калькирование, прямой эквивалент, функциональный эквивалент и описательный перевод (Vinay & Darbelnet, 1995; Nida, 1964). Проанализирован корпус из 535 терминов, установлено, что 60% терминов сохраняют полную эквивалентность, 30% – частичную, а в 10% случаев наблюдается семантическая потеря, что статистически обосновано (Grinev-Grinevich, 2008). Результаты имеют практическое значение для переводческой практики в сфере гидротехники и составления многоязычных терминологических словарей.*

**Ключевые слова** *Гидротехническая терминология, синонимическая интерференция, омонимия, полисемия, стратегии перевода, семантический сдвиг, функциональная эквивалентность*

### **Kirish**

Zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida ingliz tili global ilmiy kommunikatsiyaning asosiy vositasiga aylangan bo'lib, bu holat turli sohalarga oid terminologik birliklarning boshqa tillarga, xususan o'zbek va rus tillariga tarjima qilinishini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ayniqsa, gidrotexnik inshootlar sohasida terminlarning aniq, izchil va konseptual jihatdan mos tarjima qilinishi ilmiy axborot almashinuvi samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir, chunki ushbu soha muhandislik, fizika va gidravlika kabi aniq fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, terminlardagi har qanday noaniqlik texnik mazmunning buzilishiga olib kelishi mumkin. Terminologiya nazariyasida termin maxsus tushunchani ifodalovchi, tizimli xarakterga ega va imkon qadar bir ma'nolilikka intiluvchi leksik birlik sifatida talqin etiladi (Lotte, 1961). Shu bilan birga, terminlarning standartlashuvi va monosemantikligi ilmiy kommunikatsiyaning barqarorligini ta'minlaydi (Wüster, 1979). Biroq real tarjima jarayonida til tizimining tabiiy xususiyatlari – sinonimiya, omonimiya va polisemiya – ushbu ideal holatni murakkablashtiradi. Mazkur maqolada aynan shu hodisalar ingliz tilidan o'zbek va rus tillariga tarjima jarayonida qanday namoyon bo'lishi qiyosiy-lingvistik asosda tahlil qilinadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Terminologiya nazariyasida sinonimiya masalasi alohida ilmiy munozara obyekti hisoblanadi. Terminologik tizimlarda sinonimiya nazariy jihatdan cheklanishi lozim bo'lsa-da, amaliy nutqda u muqarrar hodisa sifatida namoyon bo'ladi (Grinev-Grinevich, 2008). Sinonimik terminlar orasidagi tanlov faqat leksik darajada emas, balki tushunchaviy (konseptual) moslik asosida amalga oshirilishi kerakligi ta'kidlanadi (Leychik, 2007). Tarjimada sinonimik birliklarni noto'g'ri tanlash semantik adekvatlikni buzadi va matnning kommunikativ qiymatini pasaytiradi (Komissarov, 1990).

Murakkab terminlarda semantik markazni aniqlash va uni adekvat tarzda tarjima qilish tarjimaning asosiy vazifasi sifatida ko'rsatiladi (Vinay & Darbelnet, 1995). Funksional ekvivalentlik tamoyiliga ko'ra, tarjima o'quvchining tushunishiga mos bo'lishi kerak (Nida, 1964). Ushbu nazariy yondashuvlar gidrotexnik terminologiyani tarjima qilishda yuzaga keladigan interferensiya hodisalarini tahlil qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot uchun terminologik korpus maxsus mezonlar asosida shakllantirildi. Korpus quyidagi manbalar asosida tuzildi: normativ hujjatlar (GOST 19185-73, SNIP 2.06.01-86, ISO 772:2011), terminologik va izohli lug'atlar, hamda gidrotexnika va tarjimashunoslikka oid ilmiy manbalar. Tanlash mezonlari sifatida terminning gidrotexnika sohasiga tegishliligi, uch til o'rtasida tarjima imkoniyati va interferensiya xususiyatining mavjudligi belgilandi. Tahlilni metodologik jihatdan izchil tashkil etish maqsadida yagona analitik model qo'llanildi: termin → sema → kontekst → tarjima varianti → semantik siljish yoki yo'qotish → pragmatik oqibat (Lotte, 1961). Gidrotexnik terminlar semantik maydon nazariyasi asosida beshta mikromaydonga – suv inshootlari, gidravlik jarayonlar, qurilmalar va mexanizmlar, energetik tizimlar, qurilish elementlari -ajratildi. Jami 535 ta termin tanlab olinib, ularning har biri sinonimik, omonimik yoki polisemantik interferensiya nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

### **Tadqiqot natijalari**

Tahlil natijasida uch turdagi interferensiya hodisasi aniq namoyon bo'ldi. **Sinonimik interferensiya** ingliz tilidagi dam, levee, dike, weir terminlarida kuzatildi: bu birliklar suvni to'suvchi yoki tartibga soluvchi inshootlarni ifodalasa-da, ularning semantik komponentlari farqlanadi. Tarjimada bu farqlar ko'pincha neytrallashadi – o'zbek tilida "to'g'on" va "damba" terminlarining o'zaro

almashib qo'llanishi kuzatildi, bu esa terminologik aniqlikni pasaytiradi (Komissarov, 1990). Energetika sohasida ham shunga o'xshash holat power station, hydropower plant, thermal power station terminlarida kuzatildi, bunda o'zbek tilida barcha variantlarning "elektr stansiya" tarzida umumlashtirilishi semantik differensialarning yo'qolishiga olib keladi.

**Omonimik interferensiya** eng yuqori xatolik xavfini yuzaga keltiruvchi hodisa sifatida aniqlandi. Ingliz tilidagi head termini umumtil leksikasida "bosh" ma'nosini bildirsa, gidrotexnik kontekstda uning asosiy semasi bosim yoki suv ustuni balandligi hisoblanadi; noto'g'ri tarjima texnik xatoga olib kelishi mumkin (Leychik, 2007). Xuddi shuningdek, bank termini "qirg'oq" va "moliyaviy muassasa" ma'nolari o'rtasida omonimik ajralishga ega bo'lib, uni transliteratsiya qilib qoldirish mazmunni butunlay buzadi.

**Polisemantik interferensiya** channel va intake kabi terminlarda yaqqol kuzatildi. Channel termini umumtil leksikasida "kanal", "yo'nalish", "aloqa vositasi" kabi bir nechta ma'noga ega bo'lsa-da, gidrotexnik kontekstda uning asosiy semasi suv o'tadigan sun'iy yoki tabiiy yo'l hisoblanadi (Grinev-Grinevich, 2008). Polisemiyaning tarjimada to'g'ri hal etilishi kontekstual tahlilni talab qiladigan murakkab lingvistik jarayon sifatida baholanadi.

Tarjima strategiyalarini tizimlashtirish natijasida Vinay va Darbelnet hamda Nida konsepsiyalari asosida beshta asosiy usul aniqlandi: transliteratsiya (aqueduct → akveduk), kalkalash (water supply system → suv ta'minoti tizimi), to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent (dam → to'g'on), funksional ekvivalent (intake → suv olish inshooti) va izohli tarjima (koriz → underground water channel system) (Vinay & Darbelnet, 1995; Nida, 1964). Statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, 535 termindan 64 foizi to'liq ekvivalentlikni saqlaydi, 26 foizi qisman mos keladi, 10 foizida esa semantik yo'qotish yoki transformatsiya kuzatiladi.

Olingan natijalar terminologiya nazariyasidagi mavjud qarashlarni gidrotexnik terminologiya materialida tasdiqlaydi. Termining tizimlilik va aniqlik tamoyillariga asoslanishi haqidagi fikr (Lotte, 1961) amaliy tarjima jarayonida to'liq saqlanmasligi, ayniqsa sinonimik va omonimik qatorlarda buzilishi mumkinligi ko'rsatildi. Bu holat terminlarning standartlashuvi va monosemantikligi haqidagi talabning (Wüster, 1979) amaliyotda doimo bajarilmasligini anglatadi. Shu bilan birga, funksional ekvivalentlik tamoyili (Nida, 1964) gidrotexnik terminlarni tarjima qilishda eng samarali yondashuv sifatida o'zini oqladi, chunki u terminning shaklidan ko'ra uning vazifasini ustuvor qo'yadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, terminologik interferensiyani kamaytirish uchun terminning semantik yadrosini aniqlash, kontekstual tahlilni chuqurlashtirish va milliy terminlarda izohli tarjimadan foydalanish zarur.

### **Tarjima strategiyalari**

Tarjima strategiyalarini tizimlashtirish natijasida Vinay va Darbelnet hamda Nida konsepsiyalari asosida beshta asosiy usul aniqlandi: transliteratsiya (aqueduct – akveduk), kalkalash (water supply system – suv ta'minoti tizimi), to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent (dam – to'g'on), funksional ekvivalent (intake – suv olish inshooti) va izohli tarjima (koriz – underground water channel system).

| Tarjima strategiyasi          | Nazariy asos      | Strategiya turi     | Ilmiy mezon           | Misol (EN-UZ-RU)                                                         |
|-------------------------------|-------------------|---------------------|-----------------------|--------------------------------------------------------------------------|
| Transliteratsiya              | Vinay & Darbelnet | Direct translation  | Shakl saqlanadi       | aqueduct – akveduk<br>– акведук                                          |
| Kalkalash                     | Vinay & Darbelnet | Direct translation  | Struktur ko'chiriladi | water supply system<br>– suv ta'minoti tizimi<br>– система водоснабжения |
| To'g'ridan-to'g'ri ekvivalent | Nida              | Formal equivalence  | Shakl-mazmun mosligi  | dam – to'g'on – плотина                                                  |
| Funksional ekvivalent         | Nida              | Dynamic equivalence | Funksiya ustuvor      | intake – suv olish inshooti – водозаборное сооружение                    |
| Izohli tarjima                | Vinay & Darbelnet | Oblique translation | Mazmun izoh orqali    | koriz – underground water channel system – кюриз                         |

**1-jadval.**

Statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, 535 termindan 64 foizi to'liq ekvivalentlikni saqlaydi, 26 foizi qisman mos keladi, 10 foizida esa semantik yo'qotish yoki transformatsiya kuzatiladi.

#### **Semantik mikromaydonlar kesimida ekvivalentlik tendensiyalari**

Umumiy statistik ko'rsatkich (64%, 26%, 10%) korpusning yaxlit tasvirini beradi, biroq beshta semantik mikromaydon o'zaro bir xil darajada ekvivalentlikni saqlamaydi; ular orasidagi farq sifat jihatidan quyidagicha tavsiflanadi. Milliy-madaniy komponentga ega birliklar (sardoba, koriz, ariq kabi, "suv inshootlari" mikromaydoni doirasida) tarjimada ko'proq qisman ekvivalentlik yoki izohli tarjima strategiyasini talab qiladi, chunki ularning ma'no hajmi manba va tarjima tilida to'liq mos kelmaydi. Aksincha, xalqaro standartlashgan umumtexnik birliklar (turbine, generator, pump kabi, "qurilmalar va mexanizmlar" hamda "energetik tizimlar" mikromaydonlarida) asosan to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent yoki transliteratsiya orqali yuqori darajadagi to'liq ekvivalentlikni namoyon etadi. Omonimik interferensiya xavfi eng yuqori bo'lgan birliklar

(head, bank, draft) "gidravlik jarayonlar" mikromaydoniga tegishli bo'lib, aynan shu guruhda semantik yo'qotish ehtimoli boshqa guruhlariga nisbatan yuqoriroq bo'lishi kutiladi.

M.T. Cabréning kommunikativ terminologiya nazariyasiga ko'ra, termin bir vaqtning o'zida turli kommunikativ vaziyatlarda – umumiy, yarim maxsus va maxsus registrlarda faoliyat yuritadi, bu esa bir xil leksemaning (masalan, head yoki bank) turli registrlarda turlicha semaga ega bo'lishini, ya'ni aynan omonimik interferensiyaning lingvistik sababini izohlaydi. K. Kageuraning termin yasashi nazariyasi ko'p komponentli terminlarning (spillway gate, water intake structure kabi) tarkibiy tuzilishini tahlil qilish uchun asos bo'lib, mazkur tadqiqotda kuzatilgan komponentlar bo'yicha semantik yuklama taqsimotini nazariy jihatdan asoslaydi. P. Faberning freym asosidagi terminologiya yondashuvi esa polisemantik interferensiyaning tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi: channel termini gidrotexnik matnda faollashadigan "suv uzatish" freymi orqali o'zining "aloqa vositasi" ma'nosidan ajraladi,

ya'ni kontekst nafaqat leksik, balki kognitiv freym darajasida ham semantik tanlovni belgilaydi. Shu tariqa, ushbu tadqiqotning natijalari nafaqat an'anaviy tarjimashunoslik (Vinay & Darbelnet, Nida, Komissarov), balki zamonaviy kognitiv-kommunikativ terminologiya nazariyalari nuqtai nazaridan ham asoslanadi.

#### **Xulosa**

Gidrotexnik inshootlar terminologiyasini ingliz tilidan o'zbek va rus tillariga tarjima

qilishda sinonimik, omonimik va polisemantik interferensiya hodisalari tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omillar ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan termin – sema – kontekst – tarjima varianti – semantik siljish – pragmatik oqibat metodologik sxemasi hamda tizimlashtirilgan tarjima strategiyalari gidrotexnika sohasidagi texnik hujjatlarni tarjima qilish va ko'p tilli terminologik lug'atlar yaratish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### **References:**

1. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, Methods and Applications*. Amsterdam: John Benjamins.
2. Faber, P. (2012). *A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language*. Berlin: De Gruyter Mouton.
3. Kageura, K. (2002). *The Dynamics of Terminology: A Descriptive Theory of Term Formation and Terminological Growth*. Amsterdam.
4. Grinev-Grinevich, S. V. (2008). *Терминоведение*. Москва: Издательский центр «Академия».
5. Komissarov, V. N. (1990). *Теория перевода (лингвистические аспекты)*. Москва: Высшая школа.
6. Leychik, V. M. (2007). *Терминоведение: предмет, методы, структура*. Москва: Издательство ЛКИ.
7. Lotte, D. S. (1961). *Основы построения научно-технической терминологии*. Москва: Изд-во АН СССР.
8. Nida, E. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: E.J. Brill.
9. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. Amsterdam: John Benjamins.
10. Wüster, E. (1979). *Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie*. Wien: Springer.